

O'ZBEKISTONDA YASHIL MOLİYALASHTIRISHNING BARQAROR RIVOJLANISHGA TA'SIRI: AMALDAGI MEKANIZMLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Qodirova Gulufar Nizomiddin qizi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi magistranti

ORCID: 0009-0008-5915-553X

gulufarq@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21943456>

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi O'zbekistonda yashil moliyalashtirishning shakllanishi, amaldagi moliyalashtirish mexanizmlari, ularning barqaror rivojlanishga ta'siri va rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqotda Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining (YeTTB) Green Economy Financing Facility (GEFF) dasturlari, yashil obligatsiyalar hamda tijorat banklari orqali amalga oshirilayotgan yashil kreditlash mexanizmlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: yashil moliyalashtirish, yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, yashil obligatsiyalar, GEFF, YeTTB, yashil kreditlash, yashil investitsiyalar, energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik texnologiyalar.

ВЛИЯНИЕ ЗЕЛЁНОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ НА УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: ДЕЙСТВУЮЩИЕ МЕХАНИЗМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ

Кодирова Гулуфар Низомиддин кизи

Магистрантка Международной исламской академии Узбекистана

ORCID: 0009-0008-5915-553X

gulufarq@gmail.com

Аннотация. В данной тезисной работе анализируются процесс формирования зелёного финансирования в Узбекистане, действующие механизмы финансирования, их влияние на устойчивое развитие, а также перспективы дальнейшего развития. В исследовании рассматриваются программы Green Economy Financing Facility (GEFF) Европейского банка реконструкции и развития (ЕБРР), зелёные облигации, а также механизмы зелёного кредитования, реализуемые посредством коммерческих банков.

Ключевые слова: зелёное финансирование, зелёная экономика, устойчивое развитие, зелёные облигации, GEFF, ЕБРР, зелёное кредитование, зелёные инвестиции, энергоэффективность, возобновляемые источники энергии, экологические технологии.

THE IMPACT OF GREEN FINANCING ON SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: EXISTING MECHANISMS AND DEVELOPMENT PROSPECTS

Kodirova Gulufar Nizomiddin qizi

Master's Student, International Islamic Academy of Uzbekistan

ORCID: 0009-0008-5915-553X

gulufarq@gmail.com

Abstract. This thesis analyzes the development of green financing in Uzbekistan, existing financing mechanisms, their impact on sustainable development, and prospects for further development. The study examines the Green Economy Financing Facility (GEFF) programs of the European Bank for Reconstruction and Development (EBRD), green bonds, as well as green lending mechanisms implemented through commercial banks.

Keywords: green financing, green economy, sustainable development, green bonds, GEFF, EBRD, green lending, green investments, energy efficiency, renewable energy, green technologies.

Kirish.

Jahon iqtisodiy rivojlanishi sharoitida unumdorlik va samaradorlik tobora muhim ahamiyat kasb etib borayotgan bir paytda, yashil iqtisodiyot asta-sekin iqtisodiy o'sishning asosiy harakatlantiruvchi omillaridan biriga aylanib bormoqda¹. Shu nuqtayi nazardan, moliyaviy resurslarni ekologik va ijtimoiy jihatdan barqaror loyihalarga yo'naltirishni nazarda tutuvchi yashil moliyalashtirish barqaror rivojlanishning muhim moliyaviy mexanizmlaridan biriga aylanmoqda.

Yashil moliyalashtirish energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, resurslarni tejash, chiqindilarni boshqarish, iqlim o'zgarishiga moslashish va issiqxona gazlari emissiyalarini kamaytirishga qaratilgan loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Shu sababli uning ahamiyati faqat ekologik natijalar bilan cheklanmay, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, texnologik modernizatsiyani jadallashtirish va korxonalar raqobatbardoshligini oshirish kabi iqtisodiy samarlarda ham namoyon bo'ladi.


Asosiy qism.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha ham muayyan institutsional mexanizmlar shakllanmoqda. Xususan, xalqaro moliya institutlari mablag'larini jalb qilish, tijorat banklari orqali yashil kreditlashni rivojlantirish va yashil obligatsiyalar bozorini shakllantirish ushbu yo'nalishning asosiy mexanizmlarini tashkil etmoqda. Mazkur jarayonda YeTTBning Green Economy Financing Facility (GEFF) dasturlari alohida ahamiyatga ega.

Yashil moliyalashtirishning tarkibiy qismlari quyidagilar:

- ✓ Yashil investitsiyalar – qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi, ekologik transport, chiqindilarni qayta ishlash, bioxilma-xillikni saqlash kabi sohalarga sarmoya kiritish;
- ✓ Yashil obligatsiyalar – ekologik va ijtimoiy barqaror loyihalarni moliyalashtirish uchun chiqariladigan maxsus qimmatli qog'ozlar;
- ✓ Bank kreditlari va subsidiyalari – ekologik loyihalar uchun imtiyozli kreditlar va davlat tomonidan beriladigan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari;
- ✓ Xalqaro moliyaviy institutlar mablag'lari – Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa xalqaro tashkilotlarning grant va kreditlari;
- ✓ Xususiy sektor sarmoyalari – barqaror rivojlanish maqsadlariga yo'naltirilgan korporativ investitsiyalar va innovatsion biznes loyihalari. Yashil moliyalashtirish manbalarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin (1-rasm):

¹ Quan'an Fu, Shanshang Ding, Xiaonan We, Jiaqi Lu. Research on the impact of green finance and enterprise green transformation-evidence from China. International Review of Economics and Finance 110 (2026) 105543.1 p.



1-rasm. Yashil moliyalashtirish manbalari²

O'zbekistonda yashil moliyalashtirishning rivojlanishida YeTTBning GEFF dasturi muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. O'zbekistondagi birinchi GEFF dasturi (GEFF I) – 2019–2024-yillarda amalga oshirilgan. Dastur doirasida mahalliy hamkor moliya institutlari orqali 60 mln AQSh dollarigacha moliyalashtirish imkoniyati yaratilgan va jami 179 ta kredit ajratilgan. Mablag'lar asosan korxonalar va uy xo'jaliklarida energiya samaradorligi hamda yashil texnologiyalarni joriy etishga yo'naltirilgan.

GEFF I natijalari dastur doirasida ajratilgan mablag'larning aniq ekologik samara yaratganini ko'rsatadi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, moliyalashtirilgan loyihalar natijasida yiliga 547 458 GJ birlamchi energiya tejalihi, 22 091 tonnadan ortiq CO₂ emissiyasi kamayishi va taxminan 9 425 m³ suv tejalihi ta'minlangan. Bu ko'rsatkichlar yashil kreditlashning faqat moliyaviy resurslarni taqdim etish bilan cheklanmasdan, o'lchanadigan ekologik natijalarga olib kelishini ko'rsatadi³.

GEFF I tajribasining davomi sifatida GEFF II Uzbekistan dasturi 2023-yilda tasdiqlanib, uning umumiy hajmi 100 mln AQSh dollarigacha belgilandi⁴. Mazkur ko'rsatkich GEFF I dasturining 60 mln dollarlik hajmiga nisbatan 66,7 foizga yuqori. GEFF II doirasida energiya samaradorligi, iqlim o'zgarishini yumshatish va unga moslashish, qayta tiklanuvchi energiya hamda boshqa yashil investitsiyalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish ko'zda tutilgan.

GEFF II ning GEFF I dan asosiy farqi moliyalashtirish ko'lamining kengayishi bilan bir qatorda yashil investitsiyalarning yo'nalishlari va qamrovining kengaytirilganidadir. Dastur orqali xususiy sektor korxonalari, kichik va o'rta biznes hamda uy xo'jaliklarining energiya

² O'rganilgan ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

³ EBRD Green Economy Financing Facility (GEFF). Uzbekistan GEFF I: Summary and Results. European Bank for Reconstruction and Development / GEFF. https://ebrdgeff.com/seff_facilities/uzbekistan-geff.

⁴ EBRD Green Economy Financing Facility (GEFF). Uzbekistan GEFF II. GEFF Uzbekistan. <https://ebrdgeff.com/uzbekistan-geff2>.

samaradorligi va iqlimga moslashish bilan bog'liq loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlari oshirilmoqda.

Yashil moliyalashtirish mexanizmining amaliy samaradorligini Ipak Yo'li Banki misolida ko'rish mumkin. YeTTB tomonidan bankka GEFF doirasida 6 mln AQSh dollarigacha kredit ajratilgan bo'lib, ushbu mablag'lar yashil loyihalarni amalga oshiruvchi subqarz oluvchilarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan. Kredit mahalliy valyutada ikki teng – 3 mln dollarlik ekvivalentdagi transhlar shaklida taqdim etilishi ko'zda tutilgan⁵.

Keyingi bosqichda YeTTB tomonidan Ipak Yo'li Bankiga GEFF II doirasida 15 mln AQSh dollarigacha yangi yashil kredit ajratilishi tasdiqlandi. Mazkur loyiha 2025-yil 19-noyabrda ma'qullangan bo'lib, jami 15 mln dollarning 13,5 mln dollari YeTTB mablag'lari, 1,5 mln dollari esa HIPCA doirasidagi qo'shma moliyalashtirish hisobidan shakllantirilgan. Mablag'lar energiya samaradorligi investitsiyalarini kengaytirish va yashil iqtisodiyotga o'tishni gender jihatdan inklyuziv tarzda qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Mazkur moliyalashtirishning amaliy natijalari 2026-yil boshidagi ma'lumotlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Ipak Yo'li Banki GEFF II dasturi ishga tushirilganidan buyon 177 ta yashil loyihani moliyalashtirgan bo'lib, ularning umumiy investitsiya hajmi 17 mln AQSh dollaridan oshgan. Amalga oshirilgan loyihalar natijasida yiliga 8 357 tonna CO₂ emissiyasini kamaytirish va 130 986 GJ birlamchi energiyani tejash imkoniyati yaratilgan. Ushbu ko'rsatkichlar yashil moliyalashtirishning real iqtisodiy va ekologik natijalarini baholash imkonini beradi.

Yashil moliyalashtirishning yana bir muhim yo'nalishi O'zbekistonda yashil obligatsiyalar bozorining shakllanishi bilan bog'liq. O'zbekiston 2023-yilda London fond birjasida ilk bor milliy valyutada suveren yashil xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Ushbu emissiya hajmi 4,25 trln so'mni tashkil etgan. Yashil obligatsiyalardan jalb qilingan mablag'lardan foydalanish xalqaro standartlar asosida hisobot qilinishi belgilangan⁶.

Shuningdek, O'zbekiston 2021-yildan boshlab Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) obligatsiyalaridan foydalanishni boshlagan. Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2021–2024-yillarda SDG va “Green” toifalarida jami 1,2 mlrd AQSh dollari miqdorida suveren xalqaro obligatsiyalar chiqarilgan⁷. Ushbu mablag'lardan yashil obligatsiyalar qismi suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni boshqarishni yaxshilash va boshqa ekologik loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

Shu bilan birga, O'zbekistonning yashil moliyalashtirish siyosati yanada kengroq institutsional asosga ega bo'lmoqda. 2025-yil “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili” sifatida belgilanganligi mamlakatning uzoq muddatli maqsadlari qatorida yashil investitsiyalarning ulushini oshirish, issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish va milliy yashil moliya tizimini rivojlantirish vazifalari uchun asos bo'lib xizmat qildi.

⁵ European Bank for Reconstruction and Development (EBRD). Ipak Yuli Bank – Green Economy Financing Facility. Project Summary Document, 2024.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. O'zbekiston Respublikasining suveren yashil obligatsiyalarini chiqarish bo'yicha ma'lumotlar. 2023.<https://gov.uz/ru/news/view/3061>

⁷ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Sustainable Development Goals and Green Bonds. 2021–2024-yillardagi suveren xalqaro obligatsiyalar bo'yicha ma'lumotlar. <https://gov.uz/en/imv/news/view/37768>

Yashil moliyalashtirishning barqaror rivojlanishga ta'sirini bir necha yo'nalishda baholash mumkin. Birinchidan, energiya samarador texnologiyalarga investitsiyalar energiya sarfini va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi. Ikkinchidan, qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini moliyalashtirish iqtisodiyotning energiya manbalarini diversifikatsiya qilish va uzoq muddatli energiya xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Uchinchidan, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish CO₂ emissiyalarini kamaytirib, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashga hissa qo'shadi.

Bundan tashqari, yashil investitsiyalar texnologik modernizatsiyani tezlashtiradi va korxonalarning resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi. Ipak Yo'li Bankining GEFF II doirasidagi loyihalarida 130 986 GJ/yil birlamchi energiyaning tejalishi bunga amaliy misol bo'la oladi. Mazkur natija yashil moliyalashtirishning ekologik samarasi bilan bir qatorda korxonalarning operatsion xarajatlarini optimallashtirish imkoniyatini ham ko'rsatadi.

Biroq yashil moliyalashtirishni rivojlantirishda ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, yashil loyihalarni tasniflash va baholashning yagona mezonlarini takomillashtirish, banklarda ekologik va iqlimiy risklarni baholash tizimini rivojlantirish, uzoq muddatli va nisbatan arzon moliyaviy resurslar hajmini oshirish hamda xususiy investorlarni yashil loyihalarga faol jalb qilish zarur.

Kelgusida yashil moliyalashtirish samaradorligini faqat ajratilgan mablag' miqdori bilan emas, balki CO₂ emissiyasining kamayishi, energiya tejalishi, qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarining o'sishi, yangi yashil ish o'rinlari va investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi kabi ko'rsatkichlar asosida baholash maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv yashil moliyalashtirishning real iqtisodiy va ekologik natijalarini aniqlash imkonini beradi.

Xulosa.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda yashil moliyalashtirish tizimi shakllanish bosqichidan amaliy rivojlanish bosqichiga o'tmoqda. Xalqaro moliya institutlari mablag'lari, tijorat banklarining yashil kreditlari, yashil obligatsiyalar va xususiy investitsiyalar mamlakatda ekologik va iqtisodiy jihatdan samarali loyihalarni moliyalashtirishning muhim manbalariga aylanmoqda. Xususan, YeTTBning GEFF dasturlari orqali energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya va iqlimga moslashish loyihalarining moliyalashtirilishi yashil moliyalashtirishning amaliy samaradorligini namoyon etmoqda.

GEFF I va GEFF II dasturlari doirasidagi natijalar yashil moliyalashtirishning energiya resurslarini tejash va CO₂ emissiyalarini kamaytirish bilan bir qatorda, korxonalar xarajatlarini optimallashtirish hamda texnologik modernizatsiyani jadallashtirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, O'zbekistonning yashil va SDG obligatsiyalarini xalqaro bozorlarga chiqarishi yashil loyihalar uchun uzoq muddatli moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Kelgusida O'zbekistonda yashil moliyalashtirishning samaradorligini oshirish uchun yashil loyihalarni aniqlash va tasniflashning yagona mezonlarini takomillashtirish, banklarning ekologik va iqlimiy risklarni baholash salohiyatini kuchaytirish, uzoq muddatli va nisbatan arzon moliyaviy resurslar hajmini kengaytirish hamda xususiy investorlarning yashil loyihalardagi ishtirokini rag'batlantirish muhim hisoblanadi. Shuningdek, yashil moliyalashtirish natijalarini faqat moliyalashtirilgan mablag'lar hajmi bilan emas, balki energiya tejalishi, CO₂ emissiyalarining qisqarishi, qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarishining o'sishi va iqtisodiy samaradorlik kabi aniq ko'rsatkichlar asosida baholash

maqsadga muvofiq. Umuman olganda, yashil moliyalashtirish mexanizmlarining izchil rivojlantirilishi O'zbekistonda past uglerodli iqtisodiyotga o'tish, resurslardan samarali foydalanish va uzoq muddatli barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Quan'an Fu, Shanshang Ding, Xiaonan We, Jiaqi Lu. Research on the impact of green finance and enterprise green transformation-evidence from China. International Review of Economics and Finance 110 (2026) 105543.1 p.
2. EBRD Green Economy Financing Facility (GEFF). Uzbekistan GEFF I: Summary and Results. European Bank for Reconstruction and Development / GEFF. <https://ebrdgeff.com/seff facilities/uzbekistan-geff1>
3. EBRD Green Economy Financing Facility (GEFF). Uzbekistan GEFF II. GEFF Uzbekistan.
4. European Bank for Reconstruction and Development (EBRD). Ipak Yuli Bank – Green Economy Financing Facility. Project Summary Document.
5. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. O'zbekiston Respublikasining suveren yashil obligatsiyalarini chiqarish bo'yicha ma'lumotlar. 2023. <https://gov.uz/ru/news/view/3061>.
6. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Sustainable Development Goals and Green Bonds. 2021–2024-yillardagi suveren xalqaro obligatsiyalar bo'yicha ma'lumotlar. <https://gov.uz/en/imv/news/view/37768>.